

MAXSUS BO‘LINMA KOMANDIRINING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI MUSTAHKAMLASH MASALASI

Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik
bilim yurti Harbiy psixologiya kafedrasida
dotsenti, f.f.n **F.S.Nizomov**

Annotatsiya. Maqolada maxsus bo‘linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash masalasi haqida fikr-mulohaza yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, sergaklik, ruhiy zo‘riqish, ko‘nikma, iroda, axloqiy-ruhiy kamolot.

Аннотация. В статье автор рассматривает вопросы укрепления морально-психологической подготовки командиров специальных подразделений.

Ключевые слова: морально-психологическая подготовка, бдительность, психологическая нагрузка, навык, воля, морально-психологическая зрелость.

Maxsus bo‘linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash va rivojlantirish Qurolli Kuchlar faoliyatini nafaqat tinchlik vaqtida, balki jangovar vaziyatlarda ham ta‘minlashning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, I.A.Karimov ta‘kidlaganlaridek, “Jangovar vzvod va guruhlarni har tomonlama puxta tayyorlash borasidagi ishlarni, ushbu bo‘linmalar komandirlariga va butun shaxsiy tarkibning professional tayyorgarligiga bo‘lgan talabning tobora ortib borayotganini nazarda tutgan holda takomillashtirish zarur”¹.

Shu boisdan, avvalo murakkab o‘quv-jangovar sharoitlarda barqaror va ishonchli faoliyat yuritish uchun yosh ofitserni hozirgi zamon talablari asosida bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday murakkab sharoitlarda va favqulodda yuz beruvchi vaziyatlarda ham, maxsus bo‘linma komandirining ishonchli faoliyat yuritishi birinchi o‘rinda axloqiy-ruhiy tayyorgarligining barqaror va mustahkamligiga bog‘liq. Bu esa, hozirgi sharoitda amaliy faoliyat yuritayotgan yosh ofitserni, xususan, maxsus bo‘linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini tahlil etishning dolzarbligidan dalolat beradi.

Maxsus bo‘linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rivojlantirishning asosiy bosqichlari haqida gapirishdan oldin shuni ta‘kidlash joizki, hayot tajribasini ko‘rsatishicha, mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega ofitser tom ma‘nodagi maxsus bo‘linma komandiri bo‘la oladi. Ammo u mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka erishish uchun mashaqqatli yo‘llar va bosqichlarni bosib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Yosh ofitserning mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka erishishining birinchi bosqichi kursantlik davriga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi bosqichi esa, harbiy qismlarda xizmatni o‘tash bilan bog‘liq shart-sharoitlarda shakllanadi.

Mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka erishgan ofitserning boshlang‘ich, ya‘ni kursantlik davridagi tayyorgarligi xususida bir oz to‘xtalib o‘tamiz.

Kursantlarda maxsus bo‘linma komandiriga xos psixologik xususiyatlarni shakllantirish uchun nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda olib

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari tashkil etilganining 22 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigi. //BATANPARVAR, 2014 yil 13 yanvar.

borish samarali natijalarga erishish uchun qulay zamin yaratadi. Shu jumladan, harbiy tog' tayyorgarligi mashqlari yoki dala mashg'ulotlarida olib boriladigan mashqlarni muntazam ravishda takomillashtirib, hozirgi zamon talablariga, ya'ni jahon andozalariga mos keladigan tarzda amalga oshirish bo'lajak ofitserning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada boyitadi.

Kursantlar bilan axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashqlari puxta ishlangan reja asosida ikki bosqichda o'tkazilishi mumkin. Mashqlarning birinchi bosqichida kursant charchatuvchi operatsiyalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan ruhiy barqarorlikni namoyish qilishi lozim. Masalan, jangovar harakatlarni tog'li hududlarda olib borish vaqtida shaxsiy tarkibni yuqori axloqiy-ruhiy holatini ushlab turish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi: oldida turgan qiyinchiliklarni mardonavor yengish, tog'li hududlarda qurollardan mohirlik bilan foydalanib, yuqori jang olib borish san'atini ishlata olish, balandliklarni, tunellarni va jarliklarni bosib olish uchun qat'iy harakat qilish kabi mashqlar bajariladi.

Ikkinchi bosqichda esa, kursant eng murakkab jangovar vazifalarni bajarish uchun yetarli zehnga ega yoki ega emasligini ko'rsatadi. Bu bosqichda bo'lajak maxsus bo'linma komandiridan quyidagi nazariy bilimlarni egallash talab etiladi:

- shaxsiy tarkibga qo'yilgan jangovar vazifa, jangovar harakatlar xususiyatlarini, bo'linmada yuqori jangovar shaylikni ushlab turish, sergaklik, intizomiylik va tashkilotchilikka oid chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'llarini aniqlash va kashf etish;

- asosiy yo'nalishda harakat olib boruvchi bo'linmalarning taktik qobiliyatlarini aniqlash va belgilash;

- barcha bo'linmadagi shaxsiy tarkibning jangovar harakatlaridagi xususiyatlarini va xavfsizlik qoidalariga amal qilishlari yuzasidan bajarishi lozim bo'lgan harakatlarini muhokama qilish va hokazo.

Demak, hozirdan boshlab kursantlarni zaruriy mashqlar orqali chiniqtirib bormasak, kelajakda ulardan namunali komandir chiqishi yoki yaxshi maxsus bo'linma komandiri sifatida jangovar operatsiyalarning muvaffaqiyatli o'tkazishi amrimahol. Shu boisdan, maxsus bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlovchi muhim jihatlar haqida ba'zi fikr-mulohazalarni aytish joiz deb, hisoblaymiz.

Bo'lajak maxsus bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy sifatlarini oshiruvchi harbiy tayyorgarlik mashqlarini eng muhim jihatlaridan biri – uni haqiqiy jang sharoitlariga yaqinlashtirishdir. Nazarimizda, bo'lajak maxsus bo'linma komandirining psixologik tayyorgarligida ikkita muhim jihat mavjud bo'lib, ular jangovar bilimni oshiradi. Bu jihatlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

*Birinchi*dan, bo'lajak maxsus bo'linma komandiri jang maydonida duch kelishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni bilim yurtida mutaxassis ofitserlar tomonidan olib borilgan mashg'ulotlar vaqtida his qilishi lozim. Boshqacha aytganda, bo'lajak komandirni qurollarning barcha turlari bilan tanishtirish va jangovar harakatlar olib borish ssenariysini "repetitsiya" qilishlari zarur.

Gap shundaki, o'quv mashqi vaqtida kursant notanish tovush va hissiyotlarni o'rganadi, zaruriy ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Zeroki, jang vaqtida inson kuchli ruhiy zo'riqishga duch keladi. Chunki jangovar stress yosh ofitserning

intellektual va hissiy darajasiga ta'sir qiladi va bunday vaziyatlarda biri ikkinchisini kuchaytiradi. Xususan, jangovar harakatlar vaqtida inson shunday murakkab psixologik vaziyatga tushib qolishi mumkinki, bunday vaziyatga boshqa hech qanday sharoitda tushmaydi. Bu jihatlarning barchasini zukko va dono maxsus bo'linma komandiri o'z vaqtida anglab, mashqlarni o'tkazish paytida hisobga olishi zarur.

Ikkinchidan, o'quv mashqlari toki ularni bajarish avtomatik holga kelmagunga qadar qayta-qayta takrorlanishi zarur. Doimo takrorlanuvchi harakatlar ikkinchi borliq bo'lib qoladi. Va hatto, jang vaqtida ong inkor etganda ham komandir qo'yilgan vazifani bajaradi. Bunday mashqlar natijasida reflekslar ongga bo'ysungan holda shu onda ishga tushadi. Lekin ongning qaror qabul qilishi uchun vaqt talab qilinadi. Bu jihatlarni ham maxsus bo'linma komandiri o'z amaliy faoliyatida hisobga olishi lozim.

Umuman olganda, o'quv jangovar mashqlari bo'lajak komandirlarga nafaqat axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash uchun, balki yuksak intellektual sifatlarni shakllantirish hamda jangovar o'quv vazifalarni minimal ruhiy yo'qotishlar bilan bajara olish imkonini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Xullas, o'quv jangovar mashqi so'ngida to'liq tahlil o'tkazilishi va erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklarni ham ko'rsatib o'tish lozim. Bu tadbirdan asosiy maqsad bo'lajak komandir o'z faoliyatida o'quv mashqlarida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qaytarmasin. Shu asosda, yosh komandirning axloqiy-ruhiy kamolotga erishishi uchun zamin yaratish mumkin.

Yosh komandirning axloqiy-ruhiy kamolotga erishishi, avvalo uning har qanday qiyin va murakkab sharoitlarda ham harbiy mahorat, bilim va ko'nikmalaridan o'rinli tarzda foydalana bilishida namoyon bo'ladi. Binobarin, shaxsiy tarkibning yutuqlari va erishgan natijalariga qarab, maxsus bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy kamolotini aniqlash mumkin.

Gap shundaki, maxsus bo'linma komandiri shaxsiy tarkib bilan o'tkazilgan o'quv mashqlardan keyin barcha holatlar – taktika, shaxsiy tarkib harakati, barcha turdagi qurollardan foydalanish samaradorligi va raqib harakatlari chuqur tahlil qilinadi hamda tegishli xulosalar chiqarilib, baholanadi. Bunday baholanishning natijalari jangovar shaylikni oshirish dasturi asosida yotadi. Komandir tomonidan o'tkaziladigan tarkibiy va boshqa o'zgartirishlar – maxsus bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy kamolotga erishishganligining guvohidir.

Umuman olganda, axloqiy-ruhiy kamolotga erishish uchun maxsus bo'linma komandiri quyidagi asosiy jihatlarga ega bo'lishi kerak:

birinchidan, maxsus bo'linma komandiri bilimdonlik, yangiliklarni teran his qilish, murakkab masalalarni hal qilishda javobgarlikni o'z zimmasiga ola bilish, tashabbuskorlikni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash, shaxsiy tarkib imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi;

ikkinchidan, maxsus bo'linma komandiri jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mobaynida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy chiniqishi va ma'naviyatini shakllanishiga, jangovar harakatlarning eng murakkab sharoitlarida ham ularni g'alaba qozonishga safarbar qila olish kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak;

uchinchidan, har bir bo'linma komandiri qisqa vaqt ichida, axloqiy-ruhiy va jismoniy og'ir vaziyatlarga teran fikrlash va harakat qila olish qobiliyatiga ega bo'lish lozim;

to'rtinchidan esa, maxsus bo'linma komandiri nafaqat shaxsiy tarkibga, balki butun Qurolli Kuchlar bo'yicha ham namunali komandir darajasiga erishishi kerak.

Bu o'rinda, maxsus bo'linmaning namunali komandiri bo'lish osonmi? – degan savolga javob berish joizdir. Biz, yuqorida ko'rib o'tgan maxsus bo'linma komandirining intellektual qobiliyatlari Qurolli Kuchlar ofitseri uchun o'rinli bo'lgan sifatlarning bir misolidir. Maxsus bo'linmaning namunali komandiri – bu o'z kasbining mohir ustasi bo'lib, tashkilotchilik, yuqori madaniyatlilik, keng qamrovli fikrlash, yangiliklarni tez o'zlashtirish va ularni amaliyotga qo'llay olish, har qanday vaziyatda ham muhim qarorlarni qabul qilishga qodir barkamol ofitser.

Darhaqiqat, maxsus bo'linmaning namunali komandiri yuqori intellekt darajasiga ega bo'lishi, mustaqil fikrlashi, irodali bo'lishi, shaxsiy tarkib imkoniyatlarini safarbar qila olish, ijodiy fikrlay olishi, o'z hissiyotlarini idora qila olish, tezkor qaror qabul qila olish, sadoqat, mardlik, jasurlik, obro'-e'tibor, sobitqadam, tashkilotchilik kabi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, yuqori jangovar faollik hamda vaziyatni baholash, psixologik ta'sirlarga qarshi turish, mashaqqatlarga bardosh berish kabi xususiyatlari bilan shaxsiy tarkibga o'rnak bo'lishi kerak.

Umuman olganda, maxsus bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini namoyon etuvchi asosiy jihatlar – bu uning yaxshi aql-idrok va qobiliyatga ega bo'lishi, o'z-o'zini nazorat qila olish, bilim (harbiy tarix, taktika, xalqaro siyosat, boshqa xalqlar madaniyati xususiyatlari bilan tanish bo'lishi, shuningdek, jangovar hamkorlik haqidagi chuqur bilimlarga) va chidamlikka ega bo'lishi zarur. Zeroki, Qurolli Kuchlarning boshqarish tizimi har bir bo'linma komandiriga axloqiy-ruhiy va jismoniy og'ir vaziyatlarda teran fikrlash va tezkor qaror qabul qila olish qobiliyatini yuklaydi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga yakun yasab, quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

birinchidan, hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori bilim darajasiga va ajoyib tayyorgarlikka ega bo'lgan maxsus bo'linma komandirlarga talab katta;

ikkinchidan, hozirgi zamon maxsus bo'linma komandiridan professional tayyorgarlikni yanada oshirish va rivojlantirish talab qilinadi;

uchinchidan esa, har kim ham namunali maxsus bo'linma komandiri bo'la olmaydi, faqat intellektual salohiyat hamda kuchli psixologik chidamlilik va taktik tayyorgarliklarga ega bo'lgan kishigina bunga erishadi.

Demak, maxsus bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy kamolotga erishish shartlari juda ham qiyin va murakkab vazifalarni bajarishni talab etadi. Bu talablarni bajaruvchi komandir nafaqat harbiy bilim va intellektual salohiyatga, balki kuchli irodaga ega bo'lishi kerak. Ana shunda, u har qanday jangovar vazifa va topshiriqlarni puxta va mukammal bajaradi, shaxsiy tarkibni kutilgan g'alaba sari yetaklay oladi.

Annotation: the article the matter of strengthening of the moral and spiritual evening of the special unit commanders.

Key words: moral and spiritual evening, watch sunless (vigilance), spiritual ten talon, skills, will power, moral-spiritual maturity.